

**Nigmatova Madinabonu Murodovna**

*Buxoro shahar „Yangiobod“  
mahallasi Xotin -qizlar faoli*

*“Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”.*

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev**

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug‘vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko‘p bo‘lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko‘rsatmoqda. Ularning og‘irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash maqsadida so‘nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi.

2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so‘m kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o‘qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to‘lovining boshlang‘ich badaliga mablag‘ ajratildi.

2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta‘limga qabul qilindi. Natijada, o‘tgan yili oliy o‘quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Umuman, 2020-yildan boshlab, “Ayollar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko‘mak berilgan.

Hozirgi kunda “Ayollar daftari”da 630 mingdan ziyod xotin-qiz ro‘yxatda turibdi, ulardan 200 ming nafari ishsiz. Ayollar o‘rtasida jinoyatchilik, oilada zo‘ravonlik va tazyiq holatlari, afsuski, hali ham bor.

Davlatimiz rahbari bu muammolarni hal etishda mahalla faollari, jamoatchilik va nuroniylarning o‘rni va ta‘siri sezilmayotganini aytdi.

– Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu maqsad mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasida eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ularning ijrosini tizimli tarzda, har bir mahalla

kesimida amalga oshirish uchun Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida Prezident farmoni qabul qilindi.

Qo‘mita raisi ayni paytda Bosh vazir o‘rinbosari va Senat a‘zosi sifatida faoliyat yuritadi. Qo‘mitaning viloyat, tuman va shahar boshqarmalari rahbarlari esa, hokim o‘rinbosari hisoblanadi.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda “Ayollar daftari” jamg‘armasi mazkur qo‘mita tomonidan boshqariladi. Yurtimizdagi 9 ming 309 ta mahalla raisining xotin-qizlar va oila bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlari ham qo‘mita tizimiga o‘tkaziladi hamda har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilinadi.

– Endi har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim bo‘ladi. Qaysi ayolga nima kerakligi, o‘qishi, davolanishi, bolalari tarbiyasi bo‘yicha mening stolimda adolatli raqam bo‘ladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Ma‘lumki, xotin-qizlar masalalari Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tizimida edi. Alohida qo‘mita tuzilishi munosabati bilan, bu vazirlik ham Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Bu sohada ham yangi tizim yaratilishi belgilandi. Joylarda bu vazifa bevosita hokimlarning zimmasiga yuklatiladi, hokim o‘rinbosari lavozimi qisqartiriladi. Mahalla raisi o‘z hududida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faolining hamjihatlikda ishlashni ta‘minlaydi.

Shuningdek, Xalq qabulxonalarining vazifalari ham endi shahar va tumandan mahalla miqyosiga tushadi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari ayollarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. 2022-yil 1-sentyabrdan xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to‘lash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Bu maqsadlar uchun joriy yilda byudjetdan 200 milliard so‘m, 2023-yilda esa 1 trillion 700 milliard so‘m yo‘naltirilishi qayd etildi.

Ayollarning uy-joy sharoitini yaxshilash masalasiga to‘xtalar ekan, Prezidentimiz shunday dedi:

– Bir vaqtlar ayollarga imtiyozli uy berishga imkon yo‘q edi, bunga qonuniy asos, mablag‘ yo‘q edi.

Yig‘ilishda ipoteka kreditlari bo‘yicha ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo‘naltirilishi belgilandi.

Ularning salomatligini tiklash bo‘yicha ham aniq tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, joriy yilda 6 ming nafar ayolga yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatiladi. Nogironligi bo‘lganlar reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlanadi. 3 million nafar xotin-qiz onkologik skriningdan o‘tkaziladi. Shuningdek, qizlarni emlash, fertil yoshdagi ayollarni dori va vitaminlar bilan bepul ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.



Qizlarning yaxshi ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi Prezidentimizni hamisha o'ylantiradigan masalalardan biri. Bu yig'ilishda ham ular uchun ta'lim sharoitlarini kengaytirish bo'yicha tarixiy qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etiladi. Paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochiladi.

Yangi o'quv yilidan boshlab, ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. Buning uchun, joriy yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, kelgusi besh yilda 8 trillion so'm mablag' ajratiladi.

Yana bir yangilik: kelgusi o'quv yilidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab beriladi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanadi.

Jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Monomarkazlar va oliygohlar qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo'lgan ishchi kasblarga o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

2022-2024-yillar uchun "Biznes ayollar" dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so'm yo'naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi, imtiyozli kreditlar beriladi.

Davlatimiz rahbari ehtiyojmand xotin-qizlar bandligini ta'minlagan tadbirkorlarni ham qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidladi. Ular uchun ko'plab soliq va savdo imtiyozlari belgilandi.

Yig'ilishda ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Bugungi kunda tazyiq va zo'rvonlik uchragan ayollar 30 kun muddatga alohida himoyaga olinadi. Lekin, undan keyingi tizim bo'shliq bo'lib qolgan.

Shu bois, endi ayollarning tazyiq va zo'rvonlikdan himoyasi sud tomonidan ta'minlanishi, alohida himoyaga olish bir yilgacha belgilanishi aytiladi.

Oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyatini oshirish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan.

Prezidentimiz bu borada obro'-e'tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat "Oqila ayollar" harakatini tashkil qilish taklifini bildirdi.

– Bu harakat "mahallaning vijdoni"ga aylanishi kerak. Chunki ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berildi. Faol ayollar, tarmoq va hudud rahbarlari so'zga chiqib, o'z fikrlarini bildirdi.

## Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida xotin-qizlarimiz alohida o‘rin tutadi

“Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”.

Shavkat Mirziyoev,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Natijada oilaga, ayol zotiga bo‘lgan munosabatimiz tobora yuksalib, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish hayotimizning ma‘no-mazmuniga, asosiy maqsadiga aylandi.

Bugun O‘zbekiston ayollari barcha jabhalarda o‘z o‘rni va munosib mavqeiga ega bo‘lib bormoqda. Keyingi saylovlarda yurtimiz tarixida birinchi marta milliy parlament tarkibidagi xotin-qizlar soni dunyo miqyosida namunali ko‘rsatkichga ko‘tarilgani ham bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Gap shundaki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan

150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda bu ko‘rsatkich qariyb 25 foizga yetdi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizi ham jonkuyar, faol ayollardir. Ana shunday natijalar tufayli O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, milliy parlamentimiz ayol deputatlar va senatorlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37-pog‘onaga ko‘tarildi.

Shuningdek, boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi – 27 foizga, siyosiy partiyalarda – 44 foizga, oliy ta‘lim tizimida – 40 foizga, tadbirkorlik sohasida esa 35 foizga yetdi.

Bularning barchasi so‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish borasidagi tizimli ishlarning samaralaridir. Ayni sohadagi ishlar, xususan:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo‘llash amaliyotida ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash uchun mas‘ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy normalar asosida o‘qitish kabi muhim yo‘nalishlarda olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda milliy qonunchiligimiz va xalqaro konvensiyalar orqali bu yo‘nalishda zimmaga olingan majburiyatlarni bajarish yuzasidan amalga oshirilgan



keng qamrovli ishlar natijasida yigirmadan ortiq normativ-huquqiy hujjat imzolandi. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq

va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar, Prezidentimizning xotin-qizlar huquqlarini va gender tenglikni ta‘minlash, ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ularning tadbirkorlik maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari shular jumlasidandir.

Gender tenglikni ta‘minlash strategiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi esa mamlakatda inson huquqlariga nisbatan hurmat bilan qarashni shakllantirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Gender tenglik haqida so‘z borganda, ushbu tushuncha faqat ayollar manfaatlarini ifodalash bilangina cheklanmasligiga e‘tibor qaratish lozim. Aksincha, gender tenglik tamoyili har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ko‘zda tutadi.

Rivojlangan huquqiy davlat va demokratik jamiyat talablaridan biri – erkak va ayol huquqlari tengligining ta‘minlanishidir. Binobarin, gender tenglik, ya‘ni erkaklar va xotin-qizlar tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu omil eng yuqori darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotning ham negizidir. Mutaxassislarning fikricha, faqat erkaklardan iborat jamoaga nisbatan 50/50 foiz erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari, ayniqsa agar ular aqliy mehnat bilan band bo‘lsa, o‘z ish faoliyatida bir necha barobar yuqori natija ko‘rsatar ekan.

Shu ma‘noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish

va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingani ayni muddao bo‘ldi. Qaror ijrosi doirasida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash alohida e‘tibor markazida turibdi. Shu maqsadda «Ayollar daftari» tizimi joriy etilib, Davlat byudjetidan har yili 300 mlrd so‘m mablag‘ ajratib borish yo‘lga qo‘yildi.

Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning o‘qish to‘lovlarini qoplab berish tizimi joriy etildi. Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi.

Sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ana shunday natijalari xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotgani muhim ahamiyatga

ega. Jumladan, Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” indeksida O‘zbekiston 2020 yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to‘laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv salomatlikni ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatini jahon hamjamiyati e‘tirof etmoqda. Yangi O‘zbekistonda bu borada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, YuNISEF, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

O‘z navbatida, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarma ijrochi direktori Gada Valining so‘ziga ko‘ra, dunyoda har 11 daqiqada bir ayol yoki qiz o‘z oila a‘zosi tomonidan o‘ldirilmoqda. Shu tariqa 2020 yilda dunyo bo‘ylab 47 ming ayol va qiz yaqin sheriklari yoki oila a‘zolari qo‘lida halok bo‘lgan.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda ayollarning huquq va erkinliklarini har tomonlama ta‘minlash yo‘lida ulkan qadamlar qo‘yildi. Davlatimiz rahbari yaqinda e‘lon qilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli muhim konseptual hujjatda ana shu islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta‘minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibidan joy oldi.

Avvalo, O‘zbekiston Prezidentining yangi strategik dasturiga bu borada alohida Milliy dastur qabul qilish rejasi kiritilgani diqqatga sazovor. Bo‘lajak Milliy dastur mamlakat xotin-qizlari bandligini ta‘minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o‘z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, navqiron yoshlarimizni, ayniqsa, qizlarimizni sog‘lom va yetuk etib tarbiyalash, ularning qobiliyat va iste‘dodini ro‘yobga chiqarish, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish ishlari bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e‘tibor markazida bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo‘lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo‘shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Bu, o‘z navbatida, hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo‘lib kelayotganining yorqin dalolatidir.

Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘lik ilgarilab ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma‘naviy saviyasi bilan



belgilanadi. Zero, oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.